O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MAYL, ZAMON VA MODALLIKNING MULOQOT XULQIDAGI FUNKSIONAL-USLUBIY IMKONIYATLARI

MOOD, TENSE AND MODALITY IN UZBEK AND ENGLISH COMMUNICATIVE BEHAVIOUR: FUNCTIONAL-STYLISTIC POTENTIAL

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/TEQH9539

Ataniyazova Sohiba Ataboyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti;
Profi University Tillar kafedrasi o‘qituvchisi
ataniyazova.s.a@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida fe’l mayllari, zamon shakllari va modal fe’llarning muloqot xulqini (iltimos, buyruq, taklif, ruxsat, majburiyat, istak va xushmuomalalik) ifodalashdagi funksional va uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hamda L. Kerroll, Ch. Dikkens, J. Ostin va O. Uayld asarlaridan olingan dialoglarni qiyosiy-tipologik va pragmatik tahlil qilish asosida o‘zbek tilida xushmuomalalik asosan sintetik vositalar (mayl qo‘shimchalari, siz/sen zidlanishi, ko‘makchi fe’lli qurilmalar va kerak, mumkin, haqqi yo‘q kabi modal so‘zlar) orqali, ingliz tilida esa analitik vositalar (modal yordamchi fe’llar, o‘tgan zamon shakllarining uzoqlashtiruvchi qo‘llanishi va so‘roq qurilmalari) orqali ifodalanishi ko‘rsatib beriladi. Bir xil grammatik shakl ikki tilda turli pragmatik og‘irlikka ega bo‘lishi badiiy tarjima va o‘zbek o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *mayl, zamon, modallik, modal fe’llar, muloqot xulqi, xushmuomalalik, badiiy dialog.*

Annotation. *The article examines the functional and stylistic potential of verbal moods, tense forms and modal verbs in expressing communicative behaviour (requests, commands, offers, permission, obligation, wishes and politeness) in Uzbek and English. Using comparative-typological and pragmatic analysis of dialogues from Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan kunlar and from works by L. Carroll, C. Dickens, J. Austen and O. Wilde, the study shows that Uzbek*

encodes politeness mainly through synthetic means (mood suffixes, the siz/sen opposition, auxiliary-verb constructions and modal words such as kerak, mumkin, haqqi yo‘q), whereas English relies on analytic means (modal auxiliaries, the distancing use of past forms and interrogative constructions). The same grammatical form may carry different pragmatic weight in the two languages, which has direct implications for literary translation and for teaching English to Uzbek learners.

Keywords: *mood, tense, modality, modal verbs, communicative behaviour, politeness, literary dialogue.*

Muloqot jarayonida so‘zlovchi faqat axborot uzatmaydi, balki suhbatdoshga munosabatini, ijtimoiy mavqeini va niyatini ham ifodalaydi. So‘rash, buyurish, maslahat berish yoki rad etish har bir til jamoasida o‘ziga xos me’yorlar asosida amalga oshadi. Mazkur maqolada ana shu me’yorlar majmui *muloqot xulqi* deb ataladi. Muloqot xulqining grammatik tayanchini, avvalo, fe’lning mayl, zamon va modallik kategoriyalari tashkil etadi.

Nutqiy akt nazariyasiga ko‘ra, gap orqali so‘zlovchi fikr bildiribgina qolmay, muayyan harakatni ham bajaradi [Austin, 1962; Searle, 1969]. Xushmuomalalik nazariyasi esa suhbatdoshning ijtimoiy “yuzi”ni saqlash ehtiyoji grammatik shakl tanloviga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatdi [Brown, Levinson, 1987]. Masalan, ingliz tilida *Open the window* buyrug‘i o‘rniga *Could you open the window?* shaklining tanlanishi grammatik emas, pragmatik qarordir. O‘zbek tilida xuddi shu vazifani *Derazani ochib qo‘ysangiz* yoki *Derazani ochib yubormaysizmi?* kabi shakllar bajaradi.

Mavzuning dolzarbligi uch omil bilan belgilanadi. Birinchidan, o‘zbek tili agglyutinativ-sintetik, ingliz tili esa asosan analitik tuzilishga ega, shu sababli bir xil kommunikativ niyat ikki tilda turli vositalar orqali voqelanadi. Ikkinchidan, ingliz tilini o‘rganuvchilar modal fe’llarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llasalarda, ularning pragmatik “og‘irligi”ni yetarlicha his qilmaydilar va o‘zbekcha muloyim iltimosni inglizchaga qo‘pol talab tarzida o‘giradilar. Uchinchidan, badiiy matn muloqot xulqining eng tabiiy namunalarini saqlaydi, chunki yozuvchi personajlar nutqi orqali ularning ijtimoiy munosabatlarini aniq aks ettiradi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarida fe’l mayllari, zamon shakllari va modal vositalarning muloqot xulqini ifodalashdagi funksional va uslubiy imkoniyatlarini badiiy matn asosida qiyosiy aniqlashdan iborat. Shu maqsadda ikki tildagi nazariy qarashlar umumlashtirildi, badiiy asarlardan

dialogik parchalar tanlab olindi, har bir vositaning nutqiy akt turi va uslubiy bo‘yog‘i aniqlandi hamda tarjima va o‘qitish uchun xulosalar chiqarildi.

O‘zbek tilshunosligida fe’l mayllari A.N. Kononovning klassik grammatikasidan boshlab izchil o‘rganilgan [Кононов, 1960]. Akademik grammatikada mayl so‘zlovchining ish-harakatga munosabatini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin qilinadi va aniqlik (xabar), buyruq-istak hamda shart mayllari ajratiladi [O‘zbek tili grammatikasi, 1975]. Ayrim tadqiqotchilar - *moqchi* shaklini maqsad mayli sifatida alohida ko‘rsatadi. A. Hojiyev esa mayl, zamon va modal ko‘makchi fe’llar o‘rtasidagi chegaralarning nazariy masalalarini yoritgan [Hojiyev, 2010].

Ingliz tili grammatikasida mayl tushunchasi ancha tor: morfologik jihatdan aniqlik (indicative), buyruq (imperative) va qoldiq shakldagi subjunktiv (subjunctive) ajratiladi [Quirk et al., 1985; Huddleston, Pullum, 2002]. Shu bois modallikning asosiy yuki modal yordamchi fe’llarga tushadi. F. Palmer modallikni epistemik, deontik va dinamik turlarga ajratgan [Palmer, 2001], J. Kouts esa modal fe’llarning “asos” (root) va epistemik ma’nolari o‘rtasidagi o‘tish zonalarini ko‘rsatib bergan [Coates, 1983]. Zamon shakllarining pragmatik qo‘llanishini tushuntirishda S. Flayshmanning “vaqt masofasi” metaforasi muhim: o‘tgan zamon shakli faqat o‘tmishni emas, balki ijtimoiy va psixologik uzoqlikni ham ifodalaydi [Fleischman, 1989].

Pragmatik yo‘nalishda J. Lichning “nazokat maksimasi” suhbatdoshga yuklanadigan “xarajat”ni kamaytirish va unga keladigan “foyda”ni oshirish qoidasini asoslaydi [Leech, 1983]. A. Vejbitskaya ingliz tilidagi iltimosning bilvosita shakllarga moyilligini anglo-sakson madaniyatida shaxsiy erkinlikning qadrlanishi bilan izohlaydi [Wierzbicka, 1991]. O‘zbek pragmalingvistikasida Sh. Safarov va M. Hakimov ishlarida hurmat kategoriyasi, *siz* va *sen* zidlanishi hamda ko‘makchi fe’llarning muloyimlashtiruvchi vazifasi alohida ta’kidlanadi [Safarov, 2008; Hakimov, 2013]. Biroq ikki tilning mayl, zamon va modallik vositalari muloqot xulqi nuqtai nazaridan badiiy matn misolida yetarlicha qiyoslanmagan.

Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani [Qodiriy, 2024], Lyuis Kerrollning “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” [Carroll, 1865], Charlz Dikkensning “Oliver Tvist” [Dickens, 1838], Jeyn Ostinning “G‘urur va xurofot” [Austen, 1813] asarlari hamda Oskar Uayldning “Jiddiy bo‘lish muhim” komediyasidan [Wilde, 1899] olingan dialogik parchalar xizmat qildi. Tahlilda qiyosiy-tipologik metod, funksional-semantik maydon metodi

[Бондарко, 1987], pragmatik tahlil va kontekstual-uslubiy tahlildan foydalanildi. Ingliz tilidagi misollarning o‘zbekcha muqobillari muallif tomonidan tahlil maqsadida berildi.

Ingliz tilida buyruq maylining eng keskin ko‘rinishi ega va hatto fe’lsiz qo‘llanuvchi elliptik qurilmadir. Kerrollning Qirolichasi har qanday muammoga *“Off with her head!”* deb javob beradi [Carroll, 1865]. Bu yerda ega ham, modal yumshatuvchi ham, hatto fe’l ham yo‘q: shaklning to‘liq qisqarishi hokimiyatning cheklanmaganligini ko‘rsatadi, muallif esa uni satira vositasiga aylantiradi.

Uayld komediyasida bitta personaj bir xil harakatni turli suhbatdoshlarga turlicha ifodalaydi. Ledi Breknell qiziga *“Sit down immediately”* deydi, Jek Uortingga esa *“You can take a seat, Mr. Worthing”* deb murojaat qiladi [Wilde, 1899]. Birinchi holatda yalang buyruq va *immediately* ravishi yaqin, quyi mavqedagi shaxsga qarata ishlatilgan. Ikkinchi holatda *can* modal fe’li rasman muloyim, aslida esa “men sizga ruxsat beraman” degan ma’noni bildiradi va so‘zlovchining ustunligini ta’kidlaydi. Jekning *“Thank you, Lady Bracknell, I prefer standing”* javobi rad etishni hozirgi oddiy zamondagi afzallik bayoni orqali beradi: *I won’t* kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor o‘rniga shaxsiy didga havola qilish orqali u o‘z “yuzi”ni ham, suhbatdoshnikini ham saqlaydi.

O‘zbek tiliga o‘girishda bu farqni saqlash uchun mayl va modal so‘z birga ishlatilishi kerak: *“Darhol o‘tir!”* va *“O‘tirishingiz mumkin, janob Uorting”*. Agar ikkinchi gap *“O‘tiring”* deb berilsa, gap muloyim bo‘ladi, lekin Ledi Breknellning yuqoridan ruxsat berayotgan ohangi va undagi kinoya yo‘qoladi. Demak, o‘zbek tilida *mumkin* modal so‘zi ingliz tilidagi *can* ning “ruxsat berish” vazifasini uslubiy jihatdan aniq qayta tiklaydi.

O‘zbek tilida buyruq mayli shaxs-son va hurmat ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashib, muloqot xulqini nozik farqlaydi: II shaxs birlikdagi nol ko‘rsatkichli va *-gin* shakli samimiylik yoki keskinlikni, *-ing* shakli hurmatni ifodalaydi, III shaxs *-sin* qo‘shimchasi esa ko‘pincha buyruqni emas, istak va olqishni bildiradi. “O‘tkan kunlar”dagi “Qutlug‘ bo‘lsin” bob nomi [Qodiriy, 2024] shunday olqish shaklidir. Ingliz tilida bu vazifa grammatik mayl orqali emas, leksik-frazeologik vositalar (*Congratulations!*) yoki eskirgan *may* qurilmasi orqali beriladi. Bu ikki til tizimidagi asosiy farqlardan birini ko‘rsatadi: o‘zbek tilida istak grammatik paradigma ichida, ingliz tilida esa undan tashqarida ifodalanadi.

Buyruq mayli taklif nutqiy aktida ikki tilda ham muloyim hisoblanadi, chunki harakatdan foyda suhbatdoshga tegadi [Leech, 1983]. Kerrollning Mart

quyoni Alisaga *“Have some wine”* deb yalang buyruq bilan taklif qiladi. Alisa sharob yo‘qligini aytganda, u *“There isn’t any”* deb javob beradi, qizcha esa *“Then it wasn’t very civil of you to offer it”* deb e’tiroz bildiradi [Carroll, 1865]. Komik effekt aynan shundan kelib chiqadi: odobli taklif shakli mazmunsiz qolgach, Alisa uni xulq me’yorining buzilishi sifatida baholaydi. O‘zbek tilida *“Oling, oling”*, *“Marhamat qiling”* kabi takrorlangan buyruq shakllari mehmondo‘stlik odobining me’yoriy vositasi bo‘lib, takror qat’iyatni emas, samimiyatni kuchaytiradi.

O‘zbek tilida *-sa* shart mayli muloqot xulqining eng sermahsul vositalaridan biri hisoblanadi. U shaxs-son qo‘shimchasi va ohang bilan birga iltimos (*ochib qo‘ysangiz*), istak (*kelsa edi*), ruxsat (*ketsa bo‘ladi*) va taklif (*borsak-chi*) ma’nolarini ifodalaydi. Romanning “Kiroyi kuyoving shundog‘ bo‘lsa” deb nomlangan bobida [Qodiriy, 2024] *-sa* shakli bosh gapsiz qo‘llanib, hissiy baho va havasni ifodalaydi: shart ma’nosi so‘nib, undov-istak ma’nosi birinchi o‘ringa chiqadi. “Unutolmasa nima qilsin” bob nomida esa *-sa*, imkon modalligini bildiruvchi *-a olmoq* ning inkor shakli va *-sin* qo‘shimchasi ritorik so‘roq tarkibida birlashgan. Natijada buyruq emas, hamdardlik va oqlash ma’nosi yuzaga keladi.

Ingliz tilida bu ma’nolarni berish uchun bir nechta analitik vosita kerak bo‘ladi: *What is he to do if he cannot forget?* jumlasida *be to*, *can* va *if* birgalikda o‘zbekcha bitta so‘z shaklining vazifasini bajaradi. Ingliz tilidagi subjunktiv qoldiqlari esa rasmiy-kitobiy uslubni ta’minlaydi. Ledi Breknell qiziga unashtirish haqida o‘zi yoki otasi *“should his health permit him”* xabar berishini aytadi [Wilde, 1899]. Inversiyali *should* qurilmasi nutqqa tantanavor rasmiylik beradi, otaning sog‘lig‘iga bunday o‘tkinchi ishora esa oiladagi haqiqiy hokimiyat kimda ekanini kinoyali ochib beradi. O‘zbekcha *“otangizning sog‘lig‘i ko‘tarsa”* tarjimasi mazmunni saqlaydi, ammo ingliz tilidagi kitobiy ohang neytral *-sa* shaklida so‘nadi. Bu yerda tarjimon leksik kompensatsiyaga (*agar ... imkon bersa*, *iloji bo‘lsa*) murojaat qilishi lozim.

Ingliz tilida o‘tgan zamon shakli hozirgi vaziyatga nisbatan qo‘llanganda ijtimoiy masofa va ikkilanishni ifodalaydi [Fleischman, 1989]. Alisaning Cheshir mushugiga *“Would you tell me, please, which way I ought to go from here?”* degan savoli uch qavatli muloyimlik namunasidir [Carroll, 1865]: *would* masofa yaratadi, *please* iltimosni ochiq belgilaydi, *ought to* esa zaif majburiyat orqali so‘zlovchining ishonchsizligini bildiradi. Mushuk esa *“That depends a good deal on where you want to get to”* deb hozirgi oddiy zamonda, umumiy qoida shaklida

javob beradi. Ikki shakl o‘rtasidagi tafovut, ya’ni Alisaning ikkilanuvchan muloyimligi va Mushukning befarq qat’iyligi epizodning yumoristik asosini tashkil etadi.

Uayld personajlari ham o‘tgan zamon shakllaridan yashirin maqsadlar uchun foydalanadi. Ledi Breknell Jekdan qaramog‘idagi qizning boyligi haqida *“I had better ask you if Miss Cardew has any little fortune?”* deb so‘raydi [Wilde, 1899]. *Had better* qurilmasi “shunchaki rasmiyat uchun” so‘ralayotgandek taassurot qoldiradi, aslida esa butun suhbatning asl maqsadi aynan shu savoldir. Grammatik shakl va haqiqiy niyat o‘rtasidagi bu nomuvofiqlik Uayld kinoyasining asosiy manbalaridan biridir. Gvendolenning *“Couldn’t you cough?”* savolida ham inkor va o‘tgan zamon shaklidagi modal fe’l so‘roqni bilvosita maslahatga aylantiradi.

O‘zbek tilida ham o‘tgan zamon shakli muloyimlik vositasi bo‘la oladi: *“Sizdan bir narsa so‘ramoqchi edim”* gapida *edi* to‘liqsiz fe’li niyatni o‘tmishga “surib”, iltimosni yumshatadi va bu ingliz tilidagi *I wanted to ask you* qurilmasiga mos keladi. “O‘tkan kunlar”da Yusufbek hoji o‘g‘liga uylantirish haqidagi qarorini *“Biz sendan so‘ramay, sening ustingda bir ish qildik”* deb bildiradi [Qodiriy, 2024]. O‘tgan zamondagi *qildik* shakli qarorni bajarilgan ish sifatida taqdim etib, ota hokimiyatini ko‘rsatadi; *so‘ramay* ravishdoshi esa bu hokimiyat chegarasidan chiqilganini tan olish, ya’ni yashirin uzr vazifasini bajaradi. Otabekning *“Yaxshi kishilarning farzandlari ustida qilgan ishlari noto‘g‘ri bo‘lmaydi”* degan javobi esa hozirgi-kelasi zamonning umumlashtiruvchi inkor shaklida tuzilgan. U “roziman” demaydi, balki rozilikni umumiy qoida shaklida bildiradi. Bu Braun va Levinson ta’riflagan salbiy xushmuomalalik strategiyasining, ya’ni yuzga tahdid soluvchi harakatni umumiy qoida sifatida ifodalashning yorqin namunasidir [Brown, Levinson, 1987].

Romandagi “Unutmaysizmi?..” bob nomi [Qodiriy, 2024] hozirgi-kelasi zamonning inkor-so‘roq shakli va *siz* olmoshi orqali iltijo hamda umidni ifodalaydi. Ingliz tilida bunga *You won’t forget, will you?* kabi *will* va so‘roq qo‘shimchasi (tag question) qurilmasi mos keladi. Dikkens romanidagi *“Please, sir, I want some more”* iltimosi esa teskari holatni ko‘rsatadi [Dickens, 1838]. Bu yerda hozirgi oddiy zamondagi *I want* ehtiyojni modal yumshatuvchilarsiz (*I would like*) ochiq bayon qiladi. Ingliz tili me’yorida bu keskin talab sifatida qabul qilinadi, shu bois bolaning sodda to‘g‘riso‘zligi kattalarning dahshatiga sabab bo‘ladi va muallif uni ijtimoiy tanqid vositasiga aylantiradi. O‘zbekcha *“Iltimos, yana ozgina bering”* esa *-ing* shakli tufayli me’yoriy muloyim iltimos

hisoblanadi. Demak, bir xil nutqiy akt ikki tilda turli “pragmatik og‘irlik”ka ega bo‘ladi.

Ostin romanida Darsining Elizabetga qilgan izhori modal fe’llar orqali personajni tavsiflashning mumtoz namunasidir: *“It will not do. My feelings will not be repressed. You must allow me to tell you how ardently I admire and love you”* [Austen, 1813]. *Will not* inkori his-tuyg‘ularni o‘z irodasiga ega kuch sifatida tasvirlaydi, *must allow* esa deontik majburiyatni sevgi izhori kabi nozik vaziyatda suhbatdoshga yuklaydi. Bu Lichning nazokat maksimasini buzadi va Darsining mag‘rurligini grammatik darajada ochib beradi. Elizabetning keskin rad javobi uchun asos ham shu tarzda til orqali tayyorlanadi. O‘zbek tilida *“aytishimga ijozat berishingiz kerak”* tarjimasi *kerak* ning tashqi zaruriyat ma’nosi tufayli bosimni ancha yumshatadi; *“aytishim shart”* varianti esa bosimni suhbatdoshdan so‘zlovchiga ko‘chiradi. Shunday qilib, tarjimonning modal so‘z tanlovi personaj tavsifiga bevosita ta’sir qiladi.

Uayldning Sesili raqibi Gvendolenga *“May I offer you some tea, Miss Fairfax?”* deb murojaat qiladi va u remarka bilan berilgan *“[With elaborate politeness] Thank you”* javobini oladi [Wilde, 1899]. *May* eng rasmiy ruxsat so‘rash vositasi bo‘lib, bu vaziyatda o‘ta muloyimlik yashirin adovatni ifodalaydi. Bu kinoyali xushmuomalalikning namunasidir. O‘zbek tilida xuddi shu vazifani *“Sizga choy quyib bersam maylimi?”* gapi bajaradi. Unda ingliz tilidagi modal fe’l o‘rnida shart mayli (*-sam*) va *mayli* modal so‘zi birga ishlatiladi: ingliz tili modal fe’l orqali ifodalagan ma’noni o‘zbek tili mayl va modal so‘z birikmasi orqali beradi.

O‘zbek tilida deontik modallikning asosiy yuki *kerak, lozim, shart, mumkin, darkor* kabi modal so‘zlar va *haqqi yo‘q, -a olmaydi* singari qurilmalarga tushadi. Otabekning otasiga aytgan *“Sizni gunohkor qilishg‘a va gunohingizni kechishka manim haqqim yo‘q, dada...”* degan so‘zlarida [Qodiriy, 2024] *haqqim yo‘q* qurilmasi so‘zlovchining o‘zini kamtar tutishini, *siz* olmoshi va *dada* murojaati esa farzandlik hurmatini ifodalaydi. Otaning *sen*, o‘g‘ilning *siz* deb murojaat qilishidagi assimetriya ingliz tilida grammatik jihatdan ifodalanmaydi. Shu sababli *I have no right to judge you, father* tarjimasida bu hurmat faqat leksik vositalar va ohang orqali saqlanishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirib, muloqot xulqining asosiy turlari bo‘yicha ikki tildagi vositalarni quyidagicha qiyoslash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Muloqot xulqini ifodalovchi asosiy grammatik vositalar

Kommunikativ niyat	O‘zbek tili	Ingliz tili	Uslubiy bo‘yoq
Kategorik buyruq	buyruq mayli: nol ko‘rsatkich, *-gin*; *Darhol o‘tir!*	yalang imperativ, ellipsis: *Off with her head!, Sit down immediately*	mavqe ustunligi, keskinlik
Muloyim iltimos	*-sangiz, -ib qo‘ysangiz*, inkor-so‘roq *-maysizmi?*, *-ing + iltimos*	*Would/Could you...?*, *please*, o‘tgan zamon shakli	masofa, hurmat
Taklif	takrorlangan buyruq: *Oling, oling*; *-sam maylimi?*	*Have some..., May I offer...?*	samimiylik yoki rasmiylik, kinoya
Ruxsat	*mumkin, -sa bo‘ladi, mayli*	*can, may*	*can*: ustunlik; *may*: rasmiylik
Majburiyat, maslahat	*kerak, lozim, shart, haqqi yo‘q*	*must, ought to, should, had better*	qat’iylik darajasi, yashirin bosim
Istak, olqish	*-sin* (*Qutlug‘ bo‘lsin*), *-sa* (*edi*)	leksik vositalar, eskirgan *may, if only*	tantanavorlik, hissiylik
Rozilik, rad etish	umumlashtiruvchi zamon shakli: ... *noto‘g‘ri bo‘lmaydi*	afzallik bayoni: *I prefer standing*	yuzni saqlash

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida muloyimlik bir so‘z shakli ichida bir necha qatlam orqali, ya’ni mayl, shaxs-son (*siz/sen*), ko‘makchi fe’l (*-ib qo‘y, -ib yubor*) va so‘roq yuklamasi vositasida kodlanadi. Ingliz tilida esa bu vazifa so‘z tartibi, modal fe’l, zamon shakli va *please* kabi alohida leksemalar o‘rtasida taqsimlanadi. Ikkinchidan, bir xil grammatik shakl ikki tilda turli pragmatik og‘irlikka ega: o‘zbekcha *-ing* buyruq shakli o‘z holicha muloyim, inglizcha yalang imperativ esa faqat taklif aktida muloyim sanaladi. Uchinchidan, badiiy matnda yozuvchilar bu vositalarni personajni tavsiflash, ijtimoiy ierarxiyani ko‘rsatish va kinoya yaratish uchun ongli ravishda qo‘llaydi. Shu sababli

tarjimada grammatik shakl emas, uning muloqot xulqidagi vazifasi saqlanishi lozim.

Olingan natijalar ingliz tilini o‘qitish amaliyoti uchun ham ahamiyatli. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchi *-ing* shaklini inglizchaga yalang imperativ bilan o‘girib, beixtiyor qo‘pollikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Shu bois modal fe’llarni o‘qitishda grammatik qoidalar bilan birga ularning pragmatik vazifalarini badiiy dialoglar misolida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijasida quyidagi fikrlarga kelindi. Birinchidan, o‘zbek tilida muloqot xulqi asosan sintetik vositalar, ya’ni mayl qo‘shimchalari, hurmat ko‘rsatkichlari, ko‘makchi fe’llar va modal so‘zlar orqali ifodalanadi; ingliz tilida esa bu vazifani analitik vositalar, ya’ni modal fe’llar, o‘tgan zamonning “uzoqlashtiruvchi” qo‘llanishi va so‘roq qurilmalari bajaradi.

Ikkinchidan, ikki tilda ham grammatik shaklning ko‘chma qo‘llanishi xushmuomalalikni boshqarishning asosiy usulidir: o‘zbek tilida shart mayli (*-sa*) va *-sin* shakli, ingliz tilida o‘tgan zamon shakllari (*would, could, had better*) o‘z asosiy ma’nosidan uzoqlashib, iltimos, istak va ikkilanishni ifodalaydi.

Uchinchidan, badiiy matnda mayl, zamon va modal vositalar personaj xarakterini (Darsining mag‘rurligi, Ledi Breknellning hukmronligi, Otabekning farzandlik odobi) va ijtimoiy munosabatlarni ochib beruvchi muhim uslubiy vositadir.

To‘rtinchidan, ikki tildagi vositalar o‘rtasida to‘liq grammatik moslik yo‘q, shuning uchun tarjima va o‘qitishda shaklga emas, uning pragmatik vazifasi va uslubiy bo‘yog‘iga tayanish lozim. Mavzuni kelgusida yanada kengroq badiiy korpus asosida miqdoriy tahlil bilan davom ettirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Austen J. Pride and Prejudice. – London: T. Egerton, 1813.

2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

3. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

4. Carroll L. Alice’s Adventures in Wonderland. – London: Macmillan, 1865.

5. Coates J. The Semantics of the Modal Auxiliaries. – London: Croom Helm, 1983.

6. Dickens C. Oliver Twist. – London: Richard Bentley, 1838.

7. Fleischman S. Temporal distance: a basic linguistic metaphor // Studies in Language. – 1989. – Vol. 13, No. 1. – P. 1–50.

8. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

9. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.

10. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

11. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.

12. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.

13. Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

14. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Bukhara Books, 2024.

15. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.

16. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

17. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

18. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1991.

19. Wilde O. The Importance of Being Earnest. – London: Leonard Smithers, 1899.

20. Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики: Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. – Л.: Наука, 1987.

21. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1960.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**